O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI TA’LIM SIFATINI NAZORAT QILISH DAVLAT INSPEKSIYASI O‘ZBEKISTON BADIIY AKADEMIYASINING

QARORI

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlari pedagog kadrlarining o‘quv fanidan malaka sinovlarini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va O‘zbekiston Badiiy akademiyasi **qaror qiladi:**

1. Ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlari pedagog kadrlarining o‘quv fanidan malaka sinovlari ijodiy sinov shakilda 2022 yil 26-31 may kunlarida o‘tkazilsin.

Belgilansinki, “Musiqa nazariyasi”, “Musiqa adabiyoti”, “San’at tarixi”, “Etika va estetika” fanlaridan malaka sinovlari test sinovlari shaklida o‘tkaziladi.

2. Quyidagilar:

Ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlari pedagog kadrlarining o‘quv fanidan malaka sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda – ishchi guruh) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlari pedagog kadrlarining o‘quv fanidan malaka sinovida foydalaniladigan namunaviy ijodiy topshiriqlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruhga:

Ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlari pedagog kadrlarini ta’lim to‘g‘risidagi hujjatida ko‘rsatilgan tayyorlov, ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisligi yoki ixtisosligi bo‘yicha bilimlarini shaffof va adolatli sinovdan o‘tkazilishini ta’minlash;

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish

tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga 7-ilovada belgilangan ijodiy sinovlarni baholash mezonlariga qat’iy amal qilish;

sinovlar yakunlariga doir ma’lumotlarni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga (keyingi o‘rinlarda – Ta’lim inspeksiyasi) va O‘zbekiston Badiiy akademiyasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Ta’lim inspeksiyasining Ta’lim sifatini monitoring qilish bosh boshqarmasi (A.Maxmudov):

o‘tkaziladigan malaka sinovlari jarayonlari ovozli videotasvirga olinishini nazorat qilish hamda videotasvir kamida bir yil saqlanishini ta’minlash;

malaka sinovi natijalarini sinovlar yakunlanishi bilan darhol e’lon qilish choralarini ko‘rsin.

5. Ta’lim inspeksiyasining Pedagog kadrlar sifati nazorati, ta’lim hujjatlarini legallashtirish, tan olish va nostrifikatsiya qilish bosh boshqarmasi (D.Temirov)ga:

malaka sinovlari yakunlari bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish;

malaka sinovlari yakunlariga ko‘ra amaldagi malaka toifasi saqlangan, oshirilgan yoki tushirilgan pedagog kadrlarning ro‘yxatini shakllantirish;

malaka sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tganlarga elektron shakldagi sertifikatlarni berish vazifalari yuklatilsin.

6. O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Bosh ilmiy kotibi (F.Abidjanova), Ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodik ta’minlash boshqarmasi (M.Kurbanov)ga:

ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlari pedagog kadrlarining o‘quv fanidan malaka sinovlarini baholash bo‘yicha ishchi guruh a’zolarini o‘z muddatida ishtirokini ta’minlash;

o‘quv fanidan malaka sinovlarini topshirish uchun tegishli shart-shoritlar yaratish vazifasi yuklatilsin.

7. O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlari direktorlari attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlarni o‘quv fanidan malaka sinovlarida o‘z vaqtida ishtirok etishlarini ta’minlasin.

8. O‘zbekiston Badiiy akademiyasi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining 2021-yil 13-martdagi qq-03-03 va 13-son “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlarida oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifasiga talabgor pedagog kadrlar attestatsiyasini o‘tkazish bo‘yicha attestatsiya komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qaror imzolangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Ta'lim inspeksiyasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari X.Ketmonov hamda O'zbekiston Badiiy akademiyasi Bosh ilmiy kotibi F.Abidjanovalar zimmasiga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i **U.Tashkenbayev**

Toshkent sh.,
2022-yil "24" fevral,
3/sk-son

O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi **A.Nuridinov**

Toshkent sh.,
2022-yil "24" fevral,
KK-02-02-son

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini
nazorat qilish davlat inspeksiyasi va
Badiiy akademiyaning 2022-yil “ 24 ”
fevraldagi 3/kk va 11-02-22 son
qaroriga
1-ILOVA

Ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlari pedagog kadrlarining o‘quv fanidan malaka sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi

№	F.I.Sh.	Lavozimi	Ishchi tarkibi vazifasi
1.	Tojiboyev Rashid Sobir o‘g‘li	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Nazorat materiallarni bankini shakllantirish va sinovlarni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i	Ishchi guruh rahbari
2.	Usmonov Oybek Ulug‘bekovich	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bo‘limi bosh mutaxassisi	A’zo
3.	Aliqulov Alisher Maxmudovich	Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Mahobatli rangtasvir kafedrasi professori	A’zo
4.	Ziyaxanov Xurshid Djavidovich	Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Miniatyura va kitob grafikasi kafedrasi dotsenti	A’zo
5.	Islamov Feruz Xoshimovich	Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Badiiy kulol va me’moriy yodgorliklar bezagini ta’mirlash kafedrasi dotsenti	A’zo
6.	Gulyamov Komiljon Maxmudovich	Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Badiiy kulol va me’moriy yodgorliklar bezagini ta’mirlash kafedrasi dotsenti	A’zo
7.	Ataxanova Feruza Zaxirovna	Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Libos dizayn kafedrasi dotsenti	A’zo
8.	Kasimov Oybek Sadikjonovich	Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Dizayn kafedrasi dotsenti	A’zo
9.	Sharipov Nug‘mon Sotiboldiyevich	O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Xalq cholg‘ularida ijrochilik kafedrasi professori	A’zo
10.	Po‘latxanova Ramida Shamilevna	O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Konsert-meysterlik mahorati kafedrasi professori	A’zo
11.	Baxritdinova Nasiba Arifovna	O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Akademik xor-dirijyorligi kafedrasi professori	A’zo
12.	Davidova Tatyana Yuriyevna	O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Musiqa nazariyasi kafedrasi dotsenti	A’zo
13.	Zufarov Abror Maxamad-Sodiqovich	Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’at instituti Maqom cholg‘u ijrochiligi kafedrasi katta o‘qituvchisi	A’zo

Izoh: *Ishchi tarkibi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda ularning o‘rniga yangidan tayinlangan xodimlar ishchi tarkibiga kiradi.*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini
nazorat qilish davlat inspeksiyasi va
Badiiy akademiyaning 2022-yil
“ 24 ” fevraldagi 3/54 va
11-02-02 son qaroriga
2-ILOVA

Ixtisoslashtirilgan san’at maktablari hamda maktab-internatlari pedagog kadrlarining o‘quv fanidan malaka sinovida foydalaniladigan namunaviy ijodiy topshiriqlar ro‘yxati

1. Dastgohli rangtasvir rassomi, Rangtasvir asarlarini qayta tiklash rassomi:

№	Mavzular nomi
1.	“Milliy o‘yinlar”
2.	“Yurtimdagi qurilish”
3.	“Mening zamondoshim”
4.	“Dorbozlar”
5.	“O‘lkamda qish”
6.	“O‘lkamda yoz”
7.	“O‘lkamda bahor”
8.	“O‘lkamda kuz”
9.	“Hordiq”
10.	“Sirk”
11.	“Beg‘ubor yoshlik”
12.	“Sport”
13.	“Erkin mavzu”
14.	“Yurt mustaqilligi”
15.	“Yozgi ta’tilda”
16.	“Bozorda”
17.	“Hasharda”
18.	“Hayvonot bog‘ida”
19.	“Maktub”
20.	“Mening maktabim”
21.	“Ustaxonada”
22.	“Mening oilam”
23.	“Birinchi qor”
24.	“Temirchilar”
25.	“Mening buvim”
26.	“Hunarmandlar”
27.	“O‘zbek kurashi”
28.	“Nonvoyxonada”
29.	“Mening mahallam”
30.	“Mening birinchi ustozim”
31.	“Kitob mening do‘stim”
32.	“Birinchi qo‘ng‘iroq”
33.	Katta tanaffus

34.	Maktab bog‘ida
35.	Mening ustaxonam
36.	Birinchi dars
37.	Biologiya xonasida

2. Mahobatli rangtasvir rassomi:

№	Mavzular nomi
1.	“O‘zbekiston tarixiy obidalari”
2.	“Mustaqil O‘zbekiston”
3.	“Bugungi Toshkent”
4.	“XXI asr kommunikatsion texnologiyalar asri”
5.	“Orol”
6.	“Biz yomon illatlarga qarshimiz”
7.	“Beg‘ubor bolalik”
8.	“Hashar”
9.	“O‘zbek milliy hunarmandchiligi”
10.	“Mening oilam”
11.	“Vatan himoyachilari”
12.	“O‘zbek milliy bayramlari”
13.	“Navro‘z – bayrami”
14.	“O‘zbyekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami”
15.	“Xotira va qadrlash kuni bayrami”
16.	“Jaloliddin Manguberdi timsoli”
17.	“Mirzo Ulug‘bek”
18.	“Alisher Navoiy”
19.	“Xo‘ja Nasriddin Buxoroda”
20.	“Kamoliddin Behzod”
21.	“Ijodkor rassom”
22.	“O‘zbek milliy o‘yinlari”
23.	“Sport”
24.	“Sozanda”
25.	“Milliy urf-odatlar”
26.	“Raqs”
27.	“Koinot”
28.	“Yil fasllari”
29.	“Buyuk ipak yo‘li”
30.	“COVID-19”
31.	“Mening birinchi ustozim”
32.	“Mening maktabim”
33.	“Ustoz va shogird”
34.	Maktabimiz faxriylar
35.	Amir Temur izdoshlari
36.	O‘quvchilar o‘rtasida sport musobaqalari

37.	Yosh kitobxon
38.	Tabobat olami dahosi
39.	Ustoz Chingiz Ahmarov ijodi
40.	Erkin mavzu

3. Tarixiy tyeatr liboslari san'ati rassomi, Teatr va postijyor grimchi rassomi, Teatr san'ati butafori rassomi, Teatr sahna bezagi rangtasvir rassomi:

№	Mavzular nomi
1.	"Ali Bobo va qirq qaroqchi" ("1001 kecha" Sharq ertaklari turkumidan) asosida kompozitsiya ishlash
2.	"Qadimgi Yunon afsonalari" asosida kompozitsiya ishlash
3.	Rus xalq ertaklari turkumidan kompozitsiya eskizini ishlash
4.	O'zbek xalq ertaklari turkumidan kompozitsiya eskizini ishlash
5.	G'arb xalq ertaklari turkumidan kompozitsiya eskizini ishlash
6.	"Olovuddinning sehrli chirog'i" (1001 kecha Sharq ertagi) asosida sahna eskizini ishlash
7.	"Ayoz bobo" (Qish ertagi) Rus xalq ertagi asosida kompozitsiya eskizini ishlash
8.	"Arab xalq ertaklari" erkin mavzuda kompozitsiya eskizini ishlash
9.	"Xo'ja Nasriddin Afandi" xalq ijodi turkumida kompozitsiya eskizini ishlash
10.	"Qadimgi Misr afsonalari" turkumidan kompozitsiya eskizini ishlash
11.	"Chingizxon sulolasi" turkumidan kompozitsiya eskizini ishlash
12.	"Mirzo Ulug'bek" turkumidan kompozitsiya eskizini ishlash
13.	"Venetsiya karnavali" (Italiya) turkumidan kompozitsiya eskizini ishlash
14.	"Buyuk Amir Temur" mavzusida kompozitsiya eskizini ishlash
15.	"Abdulla Qodiriy" asarlari turkumidan kompozitsiya eskizini ishlash
16.	"Farhod va Shirin" A.Navoiy asari asosida kompozitsiya eskizini ishlash
17.	"Layli va Majnun" A.Navoiy asari asosida kompozitsiya eskizini ishlash
18.	"Ulug' Vatan Urushi" (1941-1945) turkumidan kompozitsiya eskizini ishlash
19.	"Samarqand, Buxoro, Xiva" tarixiy obidalari asosida kompozitsiya eskizini ishlash
20.	Sharl Perroning "Zolushka" asari va Aka-uka Grimm ertaklari asosida eskizini ishlash
21.	"Zumrad va Qimmat" o'zbek xalq ertagidagi "O'rmon" sahna ko'rinishi eskizini ishlash
22.	"Oltin baliq" A.Pushkin (Rus xalq ertagi) asari asosida kompozitsiya ishlash
23.	"Semurg'" H.Olimjon asari (ertagi) asosida kompozitsiya eskizini ishlash
24.	"Ur to'qmoq" O'zbek xalq ertagi turkumida kompozitsiya eskizini ishlash
25.	"Shum bola" G'.G'ulom asari asosida o'zbek an'anaviy "mahalla ko'chasi" ko'rinishi eskizini ishlash
26.	"Teatr sahnasida spektakl" erkin mavzuda kompozitsiya eskizini ishlash
27.	"Mening birinchi ustozim" mavzuda kompozitsiya eskizini ishlash
28.	"Mening maktabim" ko'rinishi eskizini ishlash
29.	"Ustoz va shogird" mavzuda kompozitsiya eskizini ishlash
30.	"Kitob mening do'stim" mavzuda kompozitsiya eskizini ishlash
31.	"Birinchi qo'ng'iroq" mavzuda kompozitsiya eskizini ishlash

4. Kino va televideniya rassomi:

№	Mavzular nomi

1.	“Nasriddin Afandi” (O‘zbek xalq latifalari)
2.	“Aldar Ko‘sa” (Qozoq xalq ertagi)
3.	“Ali Bobo va qirq qaroqchi” (“Ming bir kecha” arab xalq ertaklari)
4.	“Olovuddinning sehrli chirog‘i” (“Ming bir kecha”, arab xalq ertaklari)
5.	“Go‘ro‘g‘li” dostoni
6.	“Oltin baliq va baliqchi haqida ertak” (A.S.Pushkin ertagi.)
7.	“Qor malikasi”. (G.X.Andersen ertagi)
8.	“No‘xatpolvon”. (O‘zbek xalq ertagi)
9.	“Alpomish” dostoni
10.	“Semurg‘” H.Olimjon asari (ertagi) asosida kompozitsiya eskizini ishlash
11.	“Abdulla Qodiriy ” asarlari turkumida kompozitsiya eskizini ishlash
12.	“Farhod va Shirin” A.Navoiy asari asosida kompozitsiya eskizini ishlash
13.	“Layli va Majnun” A.Navoiy asari asosida kompozitsiya eskizini ishlash
14.	“Ulug‘ Vatan Urushi” (1941-1945) turkumida kompozitsiya eskizini ishlash
15.	“Ayoz bobo” (Qish ertagi) Rus xalq ertagi asosida kompozitsiya eskizini ishlash
16.	“Chingizxon sulolasi” turkumida kompozitsiya eskizini ishlash
17.	“Mirzo Ulug‘bek” turkumida kompozitsiya eskizini ishlash
18.	“Ur to‘qmoq” O‘zbek xalq ertagi turkumida kompozitsiya eskizini ishlash
19.	Sharl Perroning “Zolushka” va Aka-uka Grimm ertaklari asosida eskiz ishlash
20.	Rus xalq ertaklari turkumida kompozitsiya eskizini ishlash
21.	O‘zbek xalq ertaklari turkumida kompozitsiya eskizini ishlash
22.	G‘.G‘ulomning “Shum bola” asari asosida o‘zbek an’anaviy “Bozor” ko‘rinishi eskizini ishlash
23.	“Mening birinchi ustozim” mavzuda kompozitsiya eskizini ishlash
24.	“Mening maktabim” kompozitsiya eskizini ishlash
25.	“Ustoz va shogird” mavzuda kompozitsiya eskizini ishlash
26.	“Kitob mening do‘stim” mavzuda kompozitsiya eskizini ishlash
27.	“Birinchi qo‘ng‘iroq” mavzuda kompozitsiya eskizini ishlash

5. Grafika rassomi, Rassom multiplikator:

№	Mavzular nomi
1.	“Zumrad va Qimmat” ertagiga illyustratsiya
2.	“Qizil qalpoqcha” ertagiga illyustratsiya
3.	“Bo‘ri va yetti uloqcha” ertagiga illyustratsiya
4.	“Ninachi va chumoli” ertagiga illyustratsiya
5.	“Sholg‘om ”ertagiga illyustratsiya
6.	“Ur to‘qmoq” ertagiga illyustratsiya
7.	“Oltin tarvuz” ertagiga illyustratsiya
8.	“Alpomish” dostoniga illyustratsiya
9.	“Bo‘g‘irsoq” ertagiga illyustratsiya
10.	“Buratino” ertagiga illyustratsiya
11.	“Shum bola” qissasiga illyustratsiya
12.	“Uch og‘a-ini botirlar” ertagiga illyustratsiya
13.	“Nasriddin Afandi” ertagiga illyustratsiya

14.	“Baliqchi chol va oltin baliq haqida ertak” ga illyustratsiya
15.	“Bahor” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
16.	“Oltin kuz” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
17.	“Hosil bayrami” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
18.	“Mening shahrim” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
19.	“Milliy sport o‘yinlari” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
20.	“Navro‘z bayrami” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
21.	“Hashar” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
22.	“Ona vatan” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
23.	“Mustaqillik bayrami” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
24.	“Uloq o‘yini” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
25.	“Yurtimda bayram” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
26.	“Bunyodkorlik” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
27.	“To‘y” marosimlari mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
28.	“Varrak sayli” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
29.	“Oila” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
30.	“Musiqa olami” mavzusiga dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
31.	“Mening birinchi ustozim” dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
32.	“Mening maktabim” dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
33.	“Sinfdoshim” dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
34.	“Kitob mening do‘stim” dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
35.	“Birinchi qo‘ng‘iroq” dastgohli grafika kompozitsiya ishlash
36.	Ta’lim muassasasi uchun emblema
37.	Shaharlar uchun ramzlar
38.	Sport musobaqalari uchun emblemalar
39.	Tijorat, savdo belgilari uchun logotiplar
40.	Kitoblar uchun belgilar ishlash
41.	Plakat kompozitsiya ishlash
42.	Vizitka ishlash
43.	Markalar ishlash
44.	Koligrafiya shriftida e’lonlar ishlash
45.	Erkin mavzu

6. Lak miniatyurasi rassomi:

№	**Mavzular nomi**
1.	“Zumrad va Qimmat” ertagiga kompozitsiya
2.	O‘zbek xalq ertaklaridan biriga kompozitsiya
3.	“Uch-og‘a inilar” ertagi mavzusiga kompozitsiya
4.	“Ur to‘qmoq” ertagiga kompozitsiya
5.	“Oltin tarvuz” ertagiga kompozitsiya
6.	“Uch og‘ayni botirlar” ertagiga kompozitsiya
7.	“Sehrli shamchiroq” ertagiga kompozitsiya
8.	“Yurtimizda bahor” mavzusiga kompozitsiya

9.	“Oltin kuz mavzusiga” miniatyura kompozitsiya
10.	“Mening mahallam” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
11.	“Mening qishlog‘im” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
12.	“Mening shahrim” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
13.	“Milliy sport” o‘yinlari mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
14.	“Navro‘z bayrami” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
15.	“Yoshlik mavzusiga” miniatyura kompozitsiyasi
16.	“Hosil bayrami” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
17.	“Ona vatan” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
18.	“Xalqimizning milliy o‘yinlari” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
19.	“O‘zbek to‘y” marosimlari mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
20.	“Jaloliddin Manguberdi” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
21.	“Qovun sayli” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
22.	“Bizning oila” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
23.	“Buyuk ipak yo‘li” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
24.	“Buyuk mutafakkir olimlar” mavzusiga miniatyura kompozitsiyasi
25.	“Amir Temur” siymosiga bag‘ishlangan miniatyura kompozitsiyasi
26.	“Alisher Navoiy” siymosiga bag‘ishlangan miniatyura kompozitsiyasi
27.	“Mirzo Ulug‘bek” siymosiga bag‘ishlangan miniatyura kompozitsiyasi
28.	A.Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoniga miniatyura kompozitsiyasi
29.	A.Navoiyning “Xamsa” dostonlarining biriga miniatyura kompozitsiyasi
30.	Kamoliddin Behzod shogirdlar davrasida mavzusida miniatyura kompozitsiyasi
31.	“Mening birinchi ustozim” miniatyura kompozitsiyasi
32.	“Mening maktabim” miniatyura kompozitsiyasi
33.	“Sinfdoshim” miniatyura kompozitsiyasi
34.	“Kitob mening do‘stim” miniatyura kompozitsiyasi
35.	“Birinchi qo‘ng‘iroq” miniatyura kompozitsiyasi

7. Amaliy san’at asarlarini qayta tiklash rassomi, Badiiy kulolchilik usta-rassomi, Badiiy shisha usta-rassomi, Badiiy ganch o‘ymakorligi usta-rassomi, Badiiy naqqoshlik usta-rassomi, Badiiy yog‘och o‘ymakorligi usta-rassomi, Badiiy zardo‘zlik usta-rassomi, Badiiy gilam va gobelenlar usta-rassomi, Badiiy kashtachilik usta-rassomi, Badiiy zargarlik usta-rassomi, Badiiy misgarlik usta-rassomi:

№	Mavzular nomi
1.	Doira shakliga mos murakkab kompozitsiya
2.	Doira shaklida simmetrik kompozitsiya
3.	Doira shaklida simmetrik kompozitsiya
4.	To‘rtburchak shakli ichiga mos kompozitsiya
5.	To‘rtburchak shakli ichida geometrik shakllardan iborat kompozitsiya
6.	To‘rtburchak shakli ichida simmetrik kompozitsiya
7.	To‘rtburchak shakli ichida assimetrik kompozitsiya
8.	Sakkiz burchak shakli ichida kompozitsiya
9.	Sakkiz burchak shakli ichida geometrik shakllardan iborat kompozitsiya
10.	Sakkiz burchak shakli ichida simmetrik kompozitsiya

11.	Sakkiz burchak shakli ichida assimetrik kompozitsiya
12.	Hoshiyaga mos kompozitsiya
13.	Geometrik shakllardan iborat hoshiya kompozitsiya
14.	Mutaxassislikka oid ritm kompozitsiyasi
15.	Maishiy buyum uchun mutaxassislikka oid kompozitsiya
16.	Naqsh elementlaridan kompozitsiya
17.	O‘simliklardan iborat kompozitsiya
18.	O‘simlik va qushlardan iborat kompozitsiya
19.	Shakl, naqsh elementlaridan iborat mavzulik kompozitsiya
20.	Geometrik shakllar iborat kompozitsiya
21.	Sodda naqsh elementlari ishtirokida kompozitsiya
22.	Murakkab elementlardan iborat kompozitsiya
23.	Mehrobsimon kompozitsiya
24.	Mevalarni stilizatsiyasi orqali kompozitsiya tuzish
25.	Gullarni stilizatsiyasi orqali kompozitsiya tuzish
26.	Sovg‘aga mos buyumga turli xil element va shakllardan iborat kompozitsiya
27.	Olti burchak ichida o‘simliksimon shakllardan iborat kompozitsiya
28.	Olti burchak ichida geometrik shakllardan iborat kompozitsiya
29.	Olti burchak ichiga simmetrik kompozitsiya
30.	Olti burchak ichiga simmetrik kompozitsiya
31.	9 ta guldan iborat kompozitsiya ishlash
32.	Novda gullaridan kompozitsiya ishlash
33.	Islimiy kompozitsiya
34.	Zamonaviy naqsh kompozitsiyasi
35.	Tabiatni stilizatsiya qilish
36.	Grex naqshlarini ishlash
37.	Ustozzodalar ishlaridan namuna ishlash
38.	Toshkent, Buxoro, Qo‘qon, Samarqand maktablariga xos uslubda kompozitsiya ishlash
39.	Cholg‘u asboblari uchun badiiy kompozitsiya ishlash
40.	To‘garak xonasiga oid ko‘rgazmali qurol ko‘rinishidagi kompozitsiya
41.	Sohaga oid element va shakllar yordamida o‘quv xonasi uchun kompozitsion loyiha chizish
42.	Kutubxonaga oid ko‘rgazmali buyum loyihasini chizish
43.	Bilim mavzusiga oid kompozitsion loyiha

8. Haykaltaroshlik:

№	**Mavzular nomi**
1.	“Kurash”
2.	“Sport”
3.	“Uloq”
4.	“Dorboz”
5.	“Murabbiy siymosi”
6.	“Nonvoy siymosi”
7.	“O‘qituvchi siymosi”

8.	“Kelin salom”
9.	“Milliy o‘yinlar”
10.	“Navro‘z bayrami”
11.	“Alisher Navoiy asarlari”
12.	“O‘zbegim ayoli”
13.	“Onalik”
14.	“Bolalik”
15.	“Milliy urf-odatlar”
16.	“Sport”
17.	“Sirk”
18.	“Teatr”
19.	“Masxaraboz”
20.	“Ustoz va shogird”
21.	“Sevgi”
22.	“Sog‘inch”
23.	“Oila”
24.	“Raqs”
25.	“Musiqa”
26.	“Quruvchi”
27.	“Kulol”
28.	“Rassom”
29.	“Maktabim”
30.	“Sinfdoshim”
31.	“Kitob-oftob”
32.	“So‘nggi qo‘ng‘iroq”

9. Rassom-fotograf, Kompyuter grafikasi dizayni, WEB grafikasi dizayni:

№	Mavzular nomi
1.	Salqin ichimliklardan reklama kompozitsiyasini ishlash
2.	Shirinliklardan reklama kompozitsiyasini ishlash
3.	“Sport” mavzusida reklama kompozitsiyasini ishlash
4.	“Ekologiya” mavzusida plakat kompozitsiyasini ishlash
5.	Tikuvchilik sexi reklamasi kompozitsiyasini ishlash
6.	Dori – darmon mahsulotlariga reklama kompozitsiyasini ishlash
7.	Sut mahsulotlariga reklama kompozitsiyasini ishlash
8.	Turizm reklamasini ishlash
9.	Kino va teatr afishalari reklamasini ishlash
10.	Transport reklamasi kompozitsiyasini ishlash
11.	Yumshoq o‘yinchoqlar reklamasi kompozitsiyasini ishlash
12.	Stomatologiya reklamasi kompozitsiyasini ishlash
13.	Milliy taomlar reklamasi kompozitsiyasini ishlash
14.	Kiyim-kechak ishlab chiqarish korxonasiga logotip va reklamasini ishlash
15.	Sport anjomlari do‘konining reklamasini ishlash

16.	Avtosalon uchun logotip va reklamasini ishlash
17.	Non mahsulotlari do‘koni reklamasini ishlash
18.	Oziq – ovqat do‘konlari reklamasini ishlash
19.	Xo‘jalik mollari do‘koni reklamasini ishlash
20.	Kiyim kechak do‘konlari kompozitsiyasini ishlash
21.	Maxsus kiyim do‘konlari reklamasini ishlash
22.	Qurilish mollari do‘koni reklamasini ishlash
23.	Mebel do‘koni reklamasini ishlash
24.	Kitob do‘koni reklamasini ishlash
25.	O‘quv qurollari (kanstovar) do‘koni reklamasini ishlash
26.	Oyoq kiyimlar do‘koni reklamasini ishlash
27.	O‘yinchoqlar do‘koni reklamasini ishlash
28.	Mobil va uy telefonlari do‘koni reklamasini ishlash
29.	Parfyumeriya do‘koni reklamasini ishlash
30.	Poliz mahsulotlari do‘koni reklamasini ishlash
31.	Maktab logotiplarini ishlash
32.	O‘simliklar olami mavzusida stillashtirish loyihasi
33.	Hayvonot olami mavzusida stillashtirish loyihasi
34.	Tashrif qog‘ozi loyihasi
35.	Sodda g‘ilofi loyihasi
36.	Monogramma loyihasi
37.	Tabrik qog‘ozi loyihasi
38.	Piktogramma loyihasi (tibbiyot uchun)
39.	Piktogramma loyihasi (mehmonxona uchun)
40.	Piktogramma loyihasi (kasbga doir)
41.	Rassomchilik maktabi logotipini yaratish
42.	O‘quv markazlari uchun logotip
43.	Dizayn maktabi logotipini yaratish
44.	Ekologiya muammolariga plakat yaratish
45.	Piktogramma loyihasi (maktab oshxona uchun)

10. Interyer dizayni, Mebellar dizayni:

№	Mavzular nomi
1.	“Bolalar yotoqxonasi” interyer loyihasi
2.	“Bolalar yotoqxonasi uchun pufik” loyihasi
3.	“Yosh dizayner xonasi” interyer loyihasi
4.	“O‘smirlar yotoqxonasi” interyeri loyihasi
5.	“Kattalar yotoqxonasi” interyeri loyihasi
6.	“Dahliz interyeri” loyihasi yoki mebel loyihasi
7.	“Mehmonxona” interyeri loyihasi
8.	“Mehmonxona” yumshoq mebel loyihasi
9.	“Ish joyi uchun yozuv stoli” loyihasi
10.	“Ish joyi uchun yozuv stuli” loyihasi

11.	“Kitob javoni” loyihasi
12.	“Bolalar xonasi uchun yozuv stoli” loyihasi
13.	“Dahliz uchun mebel” loyihasi
14.	“Oyoq kiyimi uchun mebel” loyihasi
15.	“Kiyim shkafi” loyihasi
16.	“Bolalar o‘yinchoqlar shkafi” mebel loyihasi
17.	“Yosh dizayner ish stoli” mebel loyihasi
18.	“Kompyuter uchun stol” loyihasi
19.	“Yotoqxona uchun pufik” loyihasi
20.	“Yotoqxona mebeli” loyihasi
21.	“Yozuv stoli” mebel loyihasi
22.	“Oshxona mebeli” loyihasi
23.	“Tryumo” mebel loyihasi
24.	“Bolalar yotoqxonasi uchun pufik” loyihasi
25.	“Bolalar krovati” loyihasi
26.	“Kattalar yotoqxonasi” mebeli
27.	“Oshxona stoli” loyihasi
28.	“Mehmonxona uchun stol” loyihasi
29.	“Maktab uchun parta” loyihasi
30.	Maktab kutubxona loyihasi
31.	Maktab uchun faye loyihasi
32.	Sport zal interyeri loyihasi
33.	O‘qituvchilar umumiy xona interyeri loyihasi
34.	O‘quv xonasi interyeri loyihasi

11. Landshaftlar va atrof muhit dizayneri, Floristika dizayneri, Arxitektura dizayni:

№	Mavzular nomi
1.	Manzara uslubidagi kichik bog‘ loyihasi
2.	“Dam olish zonasi uchun skameyka” loyihasi
3.	“Yoritgich” loyihasi
4.	Kichik tinch hudud landshaft kompozitsiya
5.	“Bekat” loyihasi yoki landshafti
6.	Kichik me’moriy shakl loyihasi yoki landshaft kompozitsiyasi
7.	Kichik turar-joy binosi loyihasi yoki landshafti
8.	O‘simliklar stilizatsiyasi
9.	Hajmli relyef yaratish
10.	Eng sodda obyekt loyihasi landshafti
11.	Klumba yaratish
12.	Shrift kompozitsiyasi
13.	Binoni kirish qismi
14.	Darvoza oldi landshafti
15.	“Kreativ yo‘l”
16.	Kafe loyihasi yoki landshafti

17.	Magazin loyihasi yoki landshafti
18.	Ofis loyihasi yoki landshafti
19.	Fito dizayn yaratish
20.	Obyektga floristikani qo‘llash
21.	Turar joy dizayni floristikasi
22.	Kichkina bog‘larning dizayni
23.	Dam olish joylar arxitekturasi yoki dizayni
24.	Qishki bog‘ loyihasi
25.	Dam olish joylari dizayni va floristikasi
26.	Jamoat binolari va landshaft loyihasi
27.	Chorbog‘ hovli bog‘lari loyihasi
28.	Kichik bulvar loyihasi
29.	Daraxtlardan tuzilgan kompozitsiya loyihasi
30.	Gullardan tuzilgan kompozitsiya loyihasi
31.	Bolalar maydonchasi loyihasi
32.	Maktab sport zali loyihasi
33.	Maktabning ichki hovlisida daraxtlardan tuzilgan kompozitsiya loyihasi
34.	Maktab oshxona oldida gullardan tuzilgan kompozitsiya.
35.	Maktab hududida landshaft kompozitsiyasi
36.	Maktab kirish qismining landshaft loyihasi
37.	Maktab markazida kichik landshaft yaratish.

12. Charm buyumlar dizayneri, Sanoat dizayni:

№	Mavzular nomi
1.	Tryumo mebeli loyihasi (mutaxassisligi bo‘yicha)
2.	Dazmol loyihasi
3.	Changyutgich loyihasi
4.	Elektr choynak loyihasi (tefal)
5.	Yoritgich loyihasi
6.	Organayzer loyihasi
7.	Logotip dizayni
8.	Osma soat loyihasi
9.	Soch quritgich (Fen) dizayni
10.	Sanoat mahsulotlarini qadoqlash loyihasi
11.	Bionika dizayni
12.	Hamyon loyihasi (erkaklar uchun)
13.	Hamyon loyihasi (ayollar uchun)
14.	Sumka loyihasi (ayollar uchun)
15.	Sumka loyihasi (erkaklar uchun)
16.	Sumka loyihasi (Bolalar uchun)
17.	Yostiq loyihasi
18.	Mikser dizayni
19.	“Universal pult ” (mashina boshqaruv pulti) loyihasi va g‘ilofi
20.	Jurnal stoli dizayni

21.	Kompyuter sumka loyihasi (Bolalar uchun)
22.	Kamar loyihasi(ayollar uchun)
23.	Kamar loyihasi(erkaklar uchun)
24.	Pichoq loyihasi va g‘ilofi
25.	Charm aksessuarlari(qizlar uchun)
26.	Ichimlik suvi idishi yoki g‘ilofi
27.	Har xil turdagi stul dizayni
28.	Oshxona buyumlari dizayni
29.	Asbob-uskuna loyihasi yoki g‘ilofi
30.	Ko‘zoynak loyihasi yoki g‘ilofi
31.	Maktab kompyuter jihozlari uchun g‘ilof
32.	Maktab o‘quvchilari uchun planshet g‘ilofi (sumka)
33.	Maktab o‘quvchilari uchun kitob g‘ilofi
34.	Maktab o‘quvchi dizaynerlar uchun ignalar yostiqchasi g‘ilofi
35.	O‘quvchilar turniket plastik kartasi uchun g‘ilofi

13. Liboslar dizayni:

№	Mavzular nomi
1.	Militri uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani sovuq ranglardan foydalanib tasvirlang
2.	Denim uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani qarindosh ranglardan foydalanib tasvirlang
3.	“Pret-a-porte” yo‘nalishidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani kontrast ranglardan foydalanib tasvirlang
4.	“Pret-a-porte” yo‘nalishidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani o‘xshash-kontrast ranglardan foydalanib tasvirlang
5.	“Vintaj” uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani axromatik ranglardan foydalanib tasvirlang
6.	Safariy uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani qarindosh ranglardan foydalanib tasvirlang
7.	Uslublashtirish stilizatsiya (hayvon o‘simlik arxitektura) uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani xromatik ranglardan foydalanib tasvirlang
8.	“Gotika” uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani axromatik ranglardan foydalanib tasvirlang
9.	Maxsus kiyim bosh 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani xromatik ranglardan foydalanib tasvirlang
10.	3-5 ta qishki libosdan iborat kolleksiyani tasvirlang
11.	“Op-art” uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani oq-qora grafikada tasvirlang
12.	“Retro” uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani oq-qora grafikada tasvirlang
13.	“Retro” uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani tasvirlang
14.	3-5 ta yozgi libosdan iborat kolleksiyani axromatik ranglardan foydalanib tasvirlang
15.	5 ta oqshom libosidan iborat kolleksiyani tasvirlang
16.	5ta teatrlashtirilgan libosdan iborat kolleksiyani kontrast ranglardan foydalanib tasvirlang
17.	3-5 ta teatrlashtirilgan libosdan iborat kolleksiyani oq-qora grafikada tasvirlang
18.	Avangard yo‘nalishidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani kontrast ranglardan foydalanib tasvirlang

19.	Avangard yo‘nalishidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani qarindosh ranglardan foydalanib tasvirlang
20.	Asimmetrik yechimga ega bo‘lgan 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani sovuq ranglardan foydalanib tasvirlang
21.	Asimmetrik yechimli 5 ta bayramona libosdan iborat kolleksiyani tasvirlang
22.	Shifon matosi qo‘llangan avangard yo‘nalishdagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani tasvirlang
23.	Milliy naqsh elementlari qo‘llangan romantik uslubdagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani tasvirlang
24.	Milliy naqsh elementlari qo‘llangan sport uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani tasvirlang
25.	Romantik uslubdagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani issiq ranglardan foydalanib tasvirlang
26.	Romantik uslubdagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani sovuq ranglardan foydalanib tasvirlang
27.	Sport uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani issiq ranglardan foydalanib tasvirlang
28.	Sport uslubidagi asimmetrik yechimli 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani tasvirlang
29.	Etno-uslubdagi asimmetrik yechimli 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani tasvirlang
30.	Etno-uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiyani kontrast ranglardan foydalanib tasvirlang
31.	O‘quvchilar maxsus formasi kolleksiyani muqobil ranglarda ifodalang
32.	Ixtisoslashtirilgan maktablarning maxsus fan o‘qituvchilari uchun 3-5 ta libosdan iborat kolleksiya yaratish
33.	Maktab o‘quvchilari (qiz yoki o‘g‘il) bolalar uchun maxsus kiyimni 3-5 ta libosdan iborat kolleksiya yaratish
34.	Jismoniy tarbiya fani uchun sport uslubidagi 3-5 ta libosdan iborat kolleksiya yaratish
35.	Maktab xo‘jalik bo‘limi ishchilari uchun 3-5 ta libosdan iborat kolleksiya yaratish

14. Perspektiva fani:

№	Mavzular
	I.Frontal interyer usulida kompozitsiya loyihasini yaratish
1	Kirish yo‘lagi uchun kompozitsiya loyihasi
2	O‘quv xonasi uchun kompozitsiya loyihasi
3	Bolalar xonasi uchun kompozitsiya loyihasi
4	Qiz bolalar xonasi uchun kompozitsiya loyihasi
5	Egizaklar uchun xona kompozitsiyasi loyihasi
6	Go‘zallik saloni uchun kompozitsiya loyihasi
7	Bolalar bog‘chasi zali uchun kompozitsiya loyihasi
8	Sport zali uchun kompozitsiya loyihasi
9	Namoyishlar zali uchun kompozitsiya loyihasi
10	Oshxona uchun kompozitsiya loyihasi
11	Yotoqxona uchun kompozitsiya loyihasi
	II. Burchakli interyer usulida kompozitsiya loyihasini yaratish:
1	Kirish yo‘lagi uchun kompozitsiya loyihasi

2	O‘quv xonasi uchun kompozitsiya loyihasi
3	Bolalar xonasi uchun kompozitsiya loyihasi
4	Qiz bolalar xonasi uchun kompozitsiya loyihasi
5	Egizaklar uchun xona kompozitsiyasi loyihasi
6	Go‘zallik saloni uchun kompozitsiya loyihasi
7	Bolalar bog‘chasi zali uchun kompozitsiya loyihasi
8	Sport zali uchun kompozitsiya loyihasi
9	Namoyishlar zali uchun kompozitsiya loyihasi
10	Oshxona uchun kompozitsiya loyihasi
11	Yotoqxona uchun kompozitsiya loyihasi
III.Turlar(sposob setki) usulida kompozitsiya loyihasini yaratish	
1	Sport kompleks binosining kompozitsiya loyihasini yaratish
2	Maishiy xizmatlar binosining kompozitsiya loyihasini yaratish
3	Maktab binosining kompozitsiya loyihasini yaratish
4	Bolalar bog‘chasi binosining kompozitsiya loyihasini yaratish
5	Turar joy massivining kompozitsiya loyihasini yaratish
6	Atelye binosining kompozitsiya loyihasini yaratish
7	Go‘zallik saloni binosining kompozitsiya loyihasini yaratish
8	Supermarket binosining kompozitsiya loyihasini yaratish
9	O‘quv markazi binosining kompozitsiya loyihasini yaratish
10	Ryestoran binosining kompozitsiya loyihasini yaratish

15. Xalq cholg‘ulari ijrochiligi – “Nay, Qo‘shnay, Chang, Rubob prima, Qashqar rubobi, Afg‘on rubobi, Dutor bas, G‘ijjak, G‘ijjak alt, G‘ijjak bas, G‘ijjak qobus bas, G‘ijjak kontrabas, Bayan-akkordeon, Gitara” ixtisosliklari bo‘yicha ijodiy topshiriqlar

№	Ijodiy topshiriq nomi	Belgilangan vaqti	Har bir topshiriq uchun eng yuqori ball
1	O‘zbek mumtoz musiqasi yoki qayta ishlangan o‘zbek xalq kuylaridan ijro etish. *(konsertmeyster bilan birgalikda ijro, ixtiyoriy ravishda)*	4-6 daqiqa	20 ball
2	Mohirona (virtuoz) asar ijro etish. *(konsertmeyster jo ‘rligida ijro etiladi)*	5-7 daqiqa	20 ball
3	Jahon va o‘zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan yirik shakldagi asarni ijro etish. *(konsertmeyster jo ‘rligida ijro etiladi)*	4-10 daqiqa	20 ball
4	Komissiya tomonidan berilgan asarni ijodiy tahlil qilish. *(savol-javob tarzida o ‘tkaziladi)*	3-5 daqiqa	20 ball

16. Xalq cholg‘ulari ijrochiligi – “Dutor” ixtisosligi bo‘yicha ijodiy topshiriqlar

№	Ijodiy topshiriq nomi	Belgilangan vaqti	Har bir topshiriq uchun eng yuqori ball
1	O‘zbek mumtoz musiqasi yoki qayta ishlangan o‘zbek xalq kuylaridan ijro etish. *(tenor yoki an’anaviy dutor cholg‘usida ijro etiladi, konsertmeyster bilan birgalikda ijro ixtiyoriy ravishda)*	4-6 daqiqa	20 ball
2	Mohirona (virtuoz) asar ijro etish. *(prima dutor cholg‘usida konsertmeyster jo‘rligida ijro etiladi)*	5-7 daqiqa	20 ball
3	Jahon va o‘zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan yirik shakldagi asarni ijro etish. *(alt yoki prima dutor cholg‘usida konsertmeyster jo‘rligida ijro etiladi)*	4-10 daqiqa	20 ball
4	Komissiya tomonidan berilgan asarni ijodiy tahlil qilish. *(savol-javob tarzida o‘tkaziladi)*	3-5 daqiqa	20 ball

17. Xalq cholg‘ulari ijrochiligi – “Doira” ixtisosligi bo‘yicha ijodiy topshiriqlar

№	Ijodiy topshiriq nomi	Belgilangan vaqti	Har bir topshiriq uchun eng yuqori ball
1	Yirik shakldagi asar ijro etish. *(doira yoki ksilofon cholg‘usida konsertmeyster jo‘rligida ijro etiladi)*	5-10 daqiqa	20 ball
2	Mohirona (virtuoz) asar ijro etish. *(ksilofon yoki marimba cholg‘usida konsertmeyster jo‘rligida ijro etiladi)*	5-7 daqiqa	20 ball
3	O‘zbek xalq doira raqs usullaridan ijro etish.	4-6 daqiqa	20 ball
4	Doiraning barcha zarblari haqida *(savol-javob va ijro etish tarzida o‘tkaziladi)*	3-5 daqiqa	20 ball

18. An’anaviy cholg‘u ijrochiligi – “Nay, Qo‘shnay-Surnay, Chang (Qonun), Qashqar rubobi, Afg‘on rubobi, Ud, Tanbur (Sato), Dutor, G‘ijjak, Doira” ixtisosliklari bo‘yicha ijodiy topshiriqlar

№	Ijodiy topshiriq nomi	Belgilangan vaqti	Har bir topshiriq uchun eng yuqori ball
1	Shashmaqomning mushkulot bo‘limidan tasnif, tarje’, gardun va muxammaslardan birini ijro etish	6-8 daqiqa	20 ball

2	Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridagi asarlardan birini ijro etish	8-10 daqiqa	20 ball
3	Xalq kuylari yoki bastakorlar asarlaridan birini ijro etish	6-8 daqiqa	20 ball
4	Shashmaqom va mumtoz musiqa haqida *(savol-javob va ijro etish tarzida o‘tkaziladi)*	3-5 daqiqa	20 ball

19. An’anaviy xonandalik ixtisosligi bo‘yicha ijodiy topshiriqlar

№	Ijodiy topshiriq nomi	Belgilangan vaqti	Har bir topshiriq uchun eng yuqori ball
1	Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridagi asarlardan birini ijro etish	6-8 daqiqa	20 ball
2	Shashmaqomning nasr qismidagi asarlardan birini ijro etish	6-10 daqiqa	20 ball
3	O‘zbek xalq ashulalari yoki bastakorlar asarlaridan birini ijro etish	5-6 daqiqa	20 ball
4	Shashmaqom va mumtoz ashulalar haqida *(savol-javob va ijro etish tarzida o‘tkaziladi)*	3-5 daqiqa	20 ball

20. Cholg‘u ijrochiligi – “Fortepiano” ixtisosligi bo‘yicha ijodiy topshiriqlar

№	Ijodiy topshiriq nomi	Belgilangan vaqti	Har bir topshiriq uchun eng yuqori ball
1	Jahon va o‘zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan polifonik yoki yirik shakldagi asarni ijro etish.	8-10 minut	20 ball
2	Erkin shakldagi asarni ijro etish.	5-7 minut	20 ball
3	Etyud ijro etish. *(F.Shopen, F.List,A.N. Skryabin, S.V.Raxmaninov va boshqalar etyudlaridan)*	4-6 minut	20 ball
4	Komissiya tomonidan berilgan asarni ijodiy tahlil qilish. *(savol-javob tarzida o‘tkaziladi)*	3-5 minut	20 ball

21. Torli cholg‘ular ijrochiligi – “Skripka, Violonchel, Kontrabas” ixtisosliklari bo‘yicha ijodiy topshiriqlar

№	Ijodiy topshiriq nomi	Belgilangan vaqti	Har bir topshiriq uchun eng yuqori ball
1	Jahon va o‘zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan yirik shakldagi asarni ijro etish.	4-10 minut	20 ball
2	Erkin shakldagi asarni ijro etish.	5-7 minut	20 ball
3	Cholg‘u uchun yozilgan Etyud ijro etish	3-7 minut	20 ball

4	Komissiya tomonidan berilgan asarni ijodiy tahlil qilish. *(savol-javob tarzida o'tkaziladi)*	3-5 minut	20 ball

22. Puflama va zarbli cholg'ular ijrochiligi – "Zarbli cholg'ular" ixtisosligi bo'yicha ijodiy topshiriqlar

№	Ijodiy topshiriq nomi	Belgilangan vaqti	Har bir topshiriq uchun eng yuqori ball
1	Cholg'u uchun yozilgan asarni ijro etish. *(Marimba yoki vibrafon cholg'usida konsertmeyster jo'rligida ijro etiladi)*	6-8 minut	20 ball
2	Erkin shaklda asar ijro etish. *Marimba. Vibrafon yoki litavrada cholg'usida konsertmeyster jo'rligida ijro etiladi)*	5-7 minut	20 ball
3	Kichik barabanda har xil ritmdagi usullarini ijro etish.	5-6 minut	20 ball
4	Urma zarbli barcha cholg'ular haqida tushuntirish berish. *(savol-javob va ijro etish tarzida o'tkaziladi)*	3-5 minut	20 ball

23. Puflama va zarbli cholg'ular ijrochiligi – "Fleyta, Klarnet, Goboy, Fogot, Saksafon, Valtorna, Truba, Trombon, Tuba" ixtisosliklari bo'yicha ijodiy topshiriqlar

№	Ijodiy topshiriq nomi	Belgilangan vaqti	Har bir topshiriq uchun eng yuqori ball
1	Yirik shakldagi asarni ijro etish. *(konsertmeyster jo'rligida ijro etiladi)*	5-7 minut	20 ball
2	Erkin shaklda asar ijro etish. *(konsertmeyster jo'rligida ijro etiladi)*	4-6 minut	20 ball
3	Cholg'u uchun yozilgan Etyud ijro etish	5-6 minut	20 ball
4	Komissiya tomonidan berilgan asarni ijodiy tahlil qilish. *(savol-javob tarzida o'tkaziladi)*	3-5 minut	20 ball

24. San'atshunoslik – "Xor-dirijyorligi" ixtisosligi bo'yicha ijodiy topshiriqlar

№	Ijodiy topshiriq nomi	Belgilangan vaqti	Har bir topshiriq uchun eng yuqori ball
1	O'zbek kompozitorlarining aralash xor uchun jo'rsiz asariga (akapella) dirijyorlik qilish *(konsertmeyster jo'rligida)*	5-10 daqiqa	20 ball

2	Yevropa kompozitorlarining bir turdagi yoki aralash xor uchun jo‘rsiz asariga (akapella) dirijyorlik qilish *(konsertmeyster jo ‘rligida)*	5-7 daqiqa	20 ball
3	Opera sahnasi uchun o‘z xohishi bo‘yicha tanlangan asarga dirijyorlik qilish. *(konsertmeyster jo ‘rligida)*	10-15 daqiqa	20 ball
4	Komissiya tomonidan xor adabiyoti va xorshunoslik fanlari bo‘yicha berilgan savollar javob berish.	5-10 daqiqa	20 ball

Izoh: *Har bir mezon bo ‘yicha qo ‘yilgan talab to ‘liq bajarilgan taqdirda uning uchun belgilangan eng yuqori ballgacha, qisman bajarilgan taqdirda — eng yuqori ballning teng yarmigacha ball beriladi, talab umuman bajarilmagan taqdirda esa — 0 (qiymatsiz) ball qo ‘yiladi.*